



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 414-421 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHIDAGI ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI



**Suyunov Asror Baxtiyorovich**

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda telekommunikatsiya sohasining rivojlanishi, uning normativ-huquqiy asoslari va sohadagi eng muhim tadbirlar tahlil qilinadi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar natijasida kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarining roli ortib bormoqda, bu esa sohani yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilishga zamin yaratadi. Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari, Prezident farmonlari va yangi qonunlar maqolaning asosiy mavzusini tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** Telekommunikatsiya, O'zbekiston, normativ-huquqiy asoslar, iqtisodiy islohotlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, davlat dasturlari, prezident farmonlari, qonunlar.

### НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННОЙ ОТРАСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Суюнов Асрор Бахтиёрович**

Независимый исследователь Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада Аль-Хорезми

**Аннотация:** В статье анализируется развитие телекоммуникационной отрасли в Узбекистане, ее правовая база и важнейшие направления деятельности в этой сфере. В результате экономических реформ в Узбекистане возрастает роль компьютерных и телекоммуникационных технологий, что создает основу для дальнейшего развития и модернизации отрасли. Государственные программы развития телекоммуникационной инфраструктуры, указы Президента и новые законы – основная тема статьи.

**Ключевые слова:** Телекоммуникации, Узбекистан, правовая база, экономические реформы, информационно-коммуникационные технологии, государственные программы, указы президента, законы.

## REGULATORY AND LEGAL BASES IN THE DEVELOPMENT OF THE TELECOMMUNICATIONS INDUSTRY IN UZBEKISTAN

**Suyunov Asror Bakhtiyorovich**

Independent researcher of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad Al-Khorazmi

**Abstract:** The article analyzes the development of the telecommunications industry in Uzbekistan, its legal framework and the most important activities in the field. As a result of economic reforms in Uzbekistan, the role of computer and telecommunication technologies is increasing, which creates the basis for further development and modernization of the sector. State programs for the development of telecommunications infrastructure, Presidential decrees and new laws are the main topic of the article.

**Key words:** Telecommunications, Uzbekistan, legal framework, economic reforms, information and communication technologies, state programs, presidential decrees, laws.

### **Kirish**

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirish borasida kompyuter va telekommunikasiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu bois, bu borada iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, udardan foydalanishda mamlakatimizda mavjud telekommunikasiya tizimining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dolzarbligi oshib borayotgan axborot-kommunikasiya tizimlarini takomillashtirishning ilmiy asoslari haqida shuni aytish mumkinki, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi unga mos ravishda doimo ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ham olib keladi. Odamlar o'z iste'moli va axborot almashinuvi uchun tovarlar yaratish maqsadida dastlab oddiy mehnat qurollaridan foydalangan bo'lsa, bu asta sekinlik bilan rivojlanib, bugungi kunda avtomatlashtirilgan tizimlardan ham yuqori bosqich – raqamlashtirish bosqichiga o'tildi.

Telekommunikasiya sohasida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 fevralda qabul qilingan "2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida" gi 55-son Qarori muhim ahamiyatga egadir. Qarorga ko'ra, aholining telekommu-nikasiya tarmoqlaridan foydalanish texnik imkoniyatlarini ta'minlash, ular asosida sifatli xizmatlar ko'rsatish, telefon aloqasi va televideniyaning raqamli tizimlariga to'liq o'tish, 2020 yilga borib aloqa va axborotlashtirishning respublika iqtisodiyotidagi ulushini 2,5 foizgacha yetkazish nazarda tutilgan [1].

### **Tahlil va natijalar**

Oxirgi yillarda aholiga telekommunikasiya xizmat ko'rsatish sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Telekommunikasiya infratuzilma-sini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni dolzarbdir. Farmonda O’zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligining quyidagi asosiy vazifalari va faoliyatining ustuvor yo’nalishlari etib belgilab berilgan:

- axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish va qo’llash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda munosabatlarni tartibga solish, elektron hukumatni joriy etish, axborot jamiyati va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish faoliyatini muvofiqlashtirish;

- “oxirgi milya” tamoyili bo’yicha Internet tarmog’idan keng polosali foydalanishni kengaytirish, multiservisli aloqa tarmoqlari texnologiya-lari, mobil aloqa bozori, boshqa zamonaviy telekommunikasiya xizmatlari, shuningdek, logistika va pochta aloqasi xizmatlari orqali telekommunikasiya infratuzilmasini rivojlantirish va modernizasiya qilish;

- davlat organlarining axborot tizimlari va resurslarini ishlab chiqish hamda joriy etish, idoralararo o’zaro elektron hamkorlikni tashkil qilish, yagona elektron reyestrlar va ma’lumotlar bazalarini, “yagona darcha” tamoyili bo’yicha elektron davlat xizmatlari ko’rsatish tizimlarini shakllantirishga yagona texnologik yondashuv amalga oshirilishini ta’minlash;

- davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning real sektorida innovasiyalarni joriy qilishga ko’maklashish, raqamli iqtisodiyot o’sishini rag’batlantirish, shu jumladan ishlab chiqarishda kompleks avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish, elektron tijoratning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- shahar va hududiy infratuzilmani, shu jumladan kelgusida integrasiyalashgan, “aqli” va “xavfsiz” shahar yagona kompleksiga birlashtirgan holda uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish, transport logistikasini, shoshilinch xizmatlarni boshqarishning zamonaviy intellektual tizimlarini joriy etish va rivojlantirish;

- texnoparklar va kovorking-markazlar faoliyatini tashkil qilish, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy raqobatbardosh va eksport uchun mo’ljallangan dasturiy mahsulotlar hamda xizmatlarning mahalliy ishlab chiqarilishini rivojlantirishni rag’batlantirish, shart-sharoitlar yaratish va investisiyalarni jalb qilish;

- yetakchi xorijiy kompaniyalar va ta’lim muassasalarining eng yaxshi amaliyoti asosida axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasida strategik va loyiha boshqaruvi, menejment, marketing bo’yicha ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishni tashkil qilish;

- kiberxavfsizlikni ta’minlash va tarmoqlar, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini joriy qilishni ta’minlash bo’yicha kompleks choralarni amalga oshirish, shaxsiy va biometrik ma’lumotlarni yig’ish, qayta ishlash va saqlash bo’yicha texnologiyalarning qo’llanishini tartibga solishda ishtirok etish;

- taqdim etilayotgan telekommunikasiya va pochta aloqasi xizmatlarining yuqori sifatini ta’minlash maqsadida axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasida qonun hujjatlariga rioya etilishining davlat nazoratini amalga oshirish;

- axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini qo’llash va rivojlantirish masalalari bo’yicha, shu jumladan, texnik standartlar, reglamentlar jo-riy etilishini tashkil

qilish, shuningdek, Vazirlikning faoliyat sohasiga kiradigan boshqa yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashkilotlar, chet el kompaniyalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan dolzarb masalalarni samarali amalga oshirilishida sohada boshqaruv hisobining xalqaro ilg'or tajribadan kelib chiqib shakllangan zamonaviy usullarini amaliyotga tatbiq etish lozim.

Vazirlar Mahkamasining 30.10.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasi telekommunikasiyalar tarmoqlarini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [680](#)-son qarori qabul qilindi.

Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi telekommunikasiyalar tarmoqlarining davlat tomonidan boshqarilishi, shuningdek ularni boshqarish tizimining shakllantirilishi va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi.

Vazirlik zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- kundalik sharoitlarda – telekommunikasiyalar sohasida yagona texnik siyosatni olib borish; telekommunikasiya resurslari va tarmoqlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, telekommunikasiya tarmoqlarini boshqarish tizimiga kiruvchi operatorlar va provayderlar faoliyatining muvofiqlashtirilishini ta'minlash va ularning texnik holati va favqulodda vaziyatlardagi ishlarga tayyorgarligini nazorat qilish;

- favqulodda vaziyatlarda – idoraviy mansubligidan qat'i nazar, telekommunikasiya resurslari va tarmoqlaridan ustuvor darajada foydalanish va ularni markazlashgan holda boshqarish (maxsus iste'molchilarning tarmoqlari va vositalari bundan mustasno); davlat xavfsizligini ta'minlash manfaatlari yo'lida ularning barqaror ishlashini hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- telekommunikasiya tarmoqlarini markazlashtirilgan boshqarish rejimiga o'tkazish, shuningdek favqulodda vaziyatlarda ulardan foydalanishni to'xtatib turish yoki cheklash to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaror qabul qilish.

Hujjat bilan "O'zbekiston telekommunikasiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi" DUK telekommunikasiya tarmoqlari va resurslarini boshqarish bo'yicha ishchi organ etib tayinlandi va uning vazifalari belgilandi [2].

Qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Telekommunikasiya tarmoqlari va resurslarini boshqarish tizimi to'g'risidagi nizom;

- O'zbekiston telekommunikasiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi to'g'risidagi nizom.

Vazirlikka ikki oy muddatda quyidagilarni amalga oshirish topshirildi:

- manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda telekommunikasiya operatorlari va provayderlariga telekommunikasiya xizmatlarini yetkazib beruvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani to'liq xatlovdan o'tkazish va qonun hujjatlariga o'zgartirishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

– favqulodda vaziyatlarda va alohida davr (harbiy safarbarlik) mobaynida maxsus iste'molchilar o'rtasida tarmoqlararo kelishuvlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish uchun safarbarlik rejalarini va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish rejalarini ishlab chiqish.

“Telekommunikasiyalar to'g'risida”gi qonunning yangi tahriri e'lon qilindi. Qonunning maqsadi telekommunikasiyalar sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Senat 2024 yilning 30 mart kuni 51-yalpi majlisida “Telekommunikasiyalar to'g'risida”gi qonunning yangi tahririni qabul qildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida “Telekommunikasiyalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek “Aloqa to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida”gi qonun loyihasi e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan “Telekommunikasiyalar to'g'risida”gi 822-I-sonli Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlandi.

“Telekommunikasiyalar to'g'risida”gi qonun loyihasi qabul qilinishi munosabati bilan moddalari amalda o'z kuchini va dolzarbligini yo'qotgan, amalda bo'lgan bandlari tegishliligicha O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 2 avgustdagi “Radiochastota spektri to'g'risida”gi O'RQ-858-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 9 iyundagi “Pochta aloqasi to'g'risida”gi O'RQ-777 sonli Qonuni hamda mazkur “Telekommunikasiyalar to'g'risida”gi qonunlarda o'z aksini topgan O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 13 yanvardagi “Aloqa to'g'risida”gi 512-XII sonli Qonun bekor qilinadi.

“Telekommunikasiyalar to'g'risida”gi qonunning yangi tahriri loyihasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida telekommunikasiyalar tarmoqlari ommaviy yoki xususiy mulkda bo'lishi mumkin.

Telekommunikasiyalar tarmoqlarining barcha mulkdorlari teng huquqlarga ega va qonunda kafolatlangan teng himoyadan foydalanadilar.

Telekommunikasiyalar inshootlari va uskunalaridan foydalanish, ularni saqlash, qurish, qayta qurish, ta'mirlash bo'yicha o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun operator va provayderlarga “Yer kodeksi”ga muvofiq huquq asosida berilgan yerlar telekommunikasiyalar tarmoqlarining yerlari hisoblanadi.

Telekommunikasiyalar faoliyatini ta'minlash uchun yerlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.

Telekommunikasiyalarning kabel, radiorele va havo tarmoqlaridan foydalanishni ta'minlash maqsadida muhofaza tegralari belgilanadi.

Muhofaza tegralarini o'rnatish tartibi, ularning o'lchamlari, mazkur maqsadlar uchun ajratilgan yerlardan foydalanish rejimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Telekommunikasiyalar tarmoqlari belgilangan maqsadiga ko'ra umumiy foydalanishdagi, idoraviy va ajratilgan telekommunikasiyalar tarmoqlariga bo'linadi.

Telekommunikasiyalar xizmatlari ko'rsatishning yagona prinsiplari, ularni taqdim etish va haq to'lashning tartibi asosida O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha

yuridik va jismoniy shaxslarga telekommunikasiyalar xizmatlarini ko'rsatish uchun mo'ljallangan telekommunikasiyalar tarmog'i umumiy foydalanishdagi telekommunikasiyalar tarmoqlariga kiradi. Umumiy foydalanishdagi telekommunikasiyalar tarmog'ida telekommunikasiyalar xizmatlari ko'rsatish qoidalari telekommunikasiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish va maxsus ehtiyojlari uchun mo'ljallangan, ularning ixtiyorida bo'lgan va ular tomonidan foydalaniladigan telekommunikasiyalar tarmoqlari idoraviy telekommunikasiyalar tarmoqlariga kiradi. Idoraviy telekommunikasiyalar tarmoqlari boshqa foydalanuvchilarga telekommunikasiyalar xizmatlarini ko'rsatish uchun ham ishlatilishi mumkin.

Ajratilgan telekommunikasiyalar tarmoqlari jumlasiga foydalanuvchilarning muayyan doirasiga xizmatlar ko'rsatish uchun yuridik shaxslarning tijorat maqsadlarida yaratgan telekommunikasiyalar tarmoqlari kiradi.

Idoraviy va ajratilgan telekommunikasiyalar tarmoqlarining operatorlari tomonidan xizmatlar ko'rsatish qoidalari ushbu telekommunikasiyalarning operatorlari yoki provayderlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Operator va provayderlari o'zaro tijoriy kelishuv asosida va qonun hujjatlariga muvofiq aktiv va passiv telekommunikasiyalar infratuzilmasidan, aloqa kanallaridan va/yoki radiochastota spektridan birgalikda foydalanishlari mumkin.

Telekommunikasiyalar sohasida davlat tomonidan tartibga solish lisenziyalash, sertifikatlash, soliqqa tortish, ilmiy-texnik siyosatni shakllantirish yo'li bilan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi.

Telekommunikasiyalar sohasida davlat tomonidan boshqaruv telekommunikasiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Telekommunikasiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organ:

telekommunikasiyalar sohasida davlat siyosatini yuritadi;

telekommunikasiyalarni rivojlantirish milliy dasturlarini ishlab chiqadi;

telekommunikasiyalar sohasida standartlar, normalar, qoidalar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi;

yuridik shaxslarning telekommunikasiyalar sohasidagi faoliyatini lisenziyalash va ruxsat berishni amalga oshiradi;

telekommunikasiyalar xizmatlarining ayrim turlari, shuningdek tarmoqlararo ulanishlar tariflarini tartibga soladi;

operatorlar va provayderlarning faoliyat ko'rsatishi uchun teng va adolatli raqobat muhitini ta'minlanishiga ko'maklashadi;

telekommunikasiyalar texnik vositalarining sertifikatlanishiga doir ishlarni tashkil etadi;

erkin raqobat asosidagi telekommunikasiyalar xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishga ko'maklashadi;

operatorlar va provayderlarning telekommunikasiyalar tarmoqlarining axborot xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, operatorlar, provayderlar va foydalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalalarini ko'rib chiqadi;

telekommunikasiyalar tarmoqlarini raqamlash tizimini ishlab chiqadi va raqamlash rejasini boshqarishni amalga oshiradi;

Internet tarmog'i milliy segmentining manzil maydonidan foydalanish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, domen nomlari tizimini belgilaydi;

telekommunikasiyalar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

davlat boshqaruvi organlari, operatorlar va provayderlarning telekommunikasiyalar tarmoqlari va xizmatlarini rivojlantirish masalalariga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi;

tegishli organlar bilan hamkorlikda tarmoqqa ruxsatsiz ulanish va trafikni o'tkazishda o'rnatilgan himoya choralarini aylanib o'tish ustidan nazorat o'rnatadi;

sohadagi inson kapitalini yaratish va rivojlantirishni tashkil etadi;

telekommunikasiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi;

davlat boshqaruvi sohasida zamonaviy telekommunikasiyalar tarmoqlarini joriy etish, rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslarga interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini shakllantirish masalalari bo'yicha takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqadi;

telekommunikasiyalar sohasida atamalar va ta'riflarni belgilash hamda ularni tasdiqlash. Vazirlik va idoralar normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda tasdiqlangan atamalarga rioya qilishlari lozim;

qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Telekommunikasiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organning o'z vakolati doirasida qabul qilgan normativ hujjatlarining talablari barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Shuningdek, qonun normalari Konstitusiyaga moslashtirilib, telekommunikasiyalar sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish ekanligi belgilab qo'yilmoqda.

Parlament yuqori palatasining qayd etishicha, amaldagi "Telekommunikasiyalar to'g'risida"gi qonun 1999 yilda qabul qilingan bo'lib, unda nazarda tutilgan bir qator qoidalar eskirgan va bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi. Jumladan, mavjud tartibga solish mexanizmlari va atamalar o'z ahamiyatini yo'qotgani sababli amaliyotda noto'g'ri talqin qilish holatlari va sohaning rivojlanishiga to'siqlar paydo bo'lmoqda.

Sohaga oid bir nechta qonun mavjud bo'lib, ularning tegishli normalarini tizimlashtirish zarurati mavjud. Shu sababli qabul qilingan hujjat bilan "Aloqa to'g'risida"gi qonun va 1999 yil tahriridagi "Telekommunikasiyalar to'g'risida"gi qonun hamda boshqa 13 ta qonun yoki ulardagi normalar bekor qilinmoqda.

### **Xulosa**

O'zbekistonda telekommunikatsiya sohasi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi va bu jarayon davom etmoqda. Iqtisodiy islohotlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal joriy etilishi ushbu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan davlat dasturlari va Prezident farmonlari telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, internet va mobil aloqa xizmatlarining kengayishini ta'minlashga qaratilgan.

Yangi normativ-huquqiy hujjatlar va qonunlar telekommunikatsiya sohasida samaradorlikni oshirishga, raqobatbardoshlikni kuchaytirishga va innovatsiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Prezident farmonlari telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va davlat boshqaruvi tizimlarini modernizatsiya qilishni ko'zda tutadi.

Telekommunikatsiya sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bu raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirishdir. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, telekommunikatsiya sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalar ham dolzarbdir.

Umuman olganda, O'zbekistonda telekommunikatsiya sohasining rivojlanishi davom etmoqda va bu jarayon mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallamoqda. Soha oldidagi muammolarni hal qilish va yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun davlat tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 февралдаги ПФ-5349-сонли “Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
2. Вазирлар Маҳкамасининг 30.10.2020 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси телекоммуникациялар тармоқларини бошқариш тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 680-сон қарори
3. Vokhidova, M.K., Abdullaeva, A.R. (2024). Directions of Trade Relations of Uzbekistan with the Countries of Central Asia. In: Sergi, B.S., Popkova, E.G., Ostrovskaya, A.A., Chursin, A.A., Ragulina, Y.V. (eds) Ecological Footprint of the Modern Economy and the Ways to Reduce It. Advances in Science, Technology & Innovation. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-49711-7\\_76](https://doi.org/10.1007/978-3-031-49711-7_76)
4. Khasanovna, V. M. (2020). DEVELOPMENT OF TRANSBOUNDARY TRADE AND ECONOMIC RELATIONS IN CENTRAL ASIA. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 1(4), 24-34. <https://doi.org/10.47494/cajtmf.v1i4.49>
5. Abdukhalilova, L. T. (2024). Effectiveness of Digital Marketing Technologies in Commercial Banks. In Ecological Footprint of the Modern Economy and the Ways to Reduce It: The Role of Leading Technologies and Responsible Innovations (pp. 201-206). Cham: Springer Nature Switzerland.

